
Sudlar tomonidan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga sayyor qabullar orqali huquqiy yordam ko'rsatish ishlari davom etmoqda

Xususan, shahrimizda joylashgan "Oybek", "Furqat", "Al-Farg'oniy" mahalla fuqarolar yig'inlarida viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi M.Ummatova hamda Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudining raisi T.Mamatojiev va D.Akramovalar tomonidan mahalla xotin-qizlar faollari hamda hudud inspektorlari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Oliy sudning 2022 yil 23 apreldagi MIB-61/22-sonli topshirig'ining ijrosini ta'minlash maqsadida "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatish yuzasidan ochiq muloqot tarzida sayyor qabul o'tkazildi.

Ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan sayyor qabul jarayonida ijtimoiy og'ir vaziyatga tushib qolgan va unga yechim izlayotgan ayollarga huquqiy tushuntirishlar berildi.

2022-07-08 08:07:49